

Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi.

- Po'lat Mo'min Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan vaqtida adabiyot to'garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o'qidi, o'rgandi. O'rta ma'lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi, aspiranturada o'qidi, maktablarda o'qituvchilik qildi. 1944- yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she'ri bosilib chiqdi. Birinchi she'rlar to'plami esa 1949- yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan «Sayrang, qushlar», «Obod o'lkam», «Haykal», «Alla va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Po‘lat Mo‘min ijodi.

Aql, Odob, Fan yo‘li,
Yo‘llarning eng ma‘quli.
Kimki yursa uch yo‘ldan,
Ishi keladi o‘ngdan.
Yo‘llar eltar maktabga,
Etkazadi maqsadga.

Po‘lat Mo‘min ijodi.

- «Hunardan unar»,
- «To‘g‘ri o‘sgan gul bo‘lar»,
- «Aql qaerda bo‘lar?»,
- «O‘rinbosarlar»,
- «Oltin nay»,
- «Bir yarim Karim»,
- «Endi adashmaydi»,
- «Barcha bola do‘st bo‘lsa»,
- «Rahmatga rahmat»,

Po‘lat Mo‘min ijodi.

- «Gazpolvon ertak aytar»,
- «CHang yutar botir»,
- «Do‘sting qancha ko‘p bo‘lsa»,
- «Oftob va odob»,
- «Yaxshilargao‘xshasam»,
- «Bu juda soz»,
- «Eson va omon»,
- «Oltmish olti oltin qo‘l»,
- «Ustozlar izidan»,
- «Bolalarning baxti kulgan»,
- «Bir yuz bir oltin qo‘l» she‘riy to‘plamlari:

Po‘lat Mo‘min ertaklari, pesalari

- «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy»,
- «Bahodirning botirligi»,
- «Oq fil yo‘qoldi»,
- «Suqatoy-Konfetvoy»,
- «Ona bolam deydi» kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi.

Qudrat Hikmat (1925-1968)

Kitob — keng dunyo,
So'zi nur — ziyo.
Qo'ysang mehringni,
Ochar zehningni.

Qudrat Hikmat ijod yo`li

- «Mening Vatanim» (1950),
- «Baxtli bolalar» (1951 - 1952),
- «Odobli» (1953),
- «Do'stlik» (1954),
- «Rodnoy Uzbekistan» (1955)
- kabi qator to'plamlari nashr etildi.
- «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964),
- «Toshbaqalar hujumi» (1965),
- «Daydi bola»,
- «O'g'lim bilan suhbat» (1970)

Qudrat Hikmat ijod yo`li

- Shoir ijodida yumoristik she'rlar ham bir talay: «Shalabbo» «Anqov», «Injiq», «Ivirsiq», «Bizning oyi» kabi asarlarida shoir dangasa, o'z ustida ko'p ishlaymaydigan, izlanishni yoqtirmaydigan, injiq, ivirsiq bolalar ustidan qattiq kuladi.
- Ivirsiqda shoir o'yingaroq, kun bo'yi koptok o'ynab, uyga berilgan vazifani bajarish, o'z vaqtida uyqudan turish o'rniga qotib uxlab darsdan kech qolgan Siddiq nomli bolaning maktab o'quvchilariga xos bo'lmagan qiliqlarini f Qudrat Hikmatning «CHovkar», «Toshbaqalar hujumi», «Qum ostida qovunlar», «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak», «CHirchiq farzandi», «Ko'milgan oltin, vaysaqi xotin va tadbirkor ovchi qissasi» kabi ertak-dostonlarini bolalar huzur qilib o'qiydilar va katta estetik zavq oladilar.
- Qudrat Hikmatning «Bobodehqon hangomasi», «Qum ostida qovunlar», «Toshbaqalar hujumi» dostonlarida bolalarning kattalar mehnatiga qiziqishlari, ulardan o'rnak olishga intilishlari yoritiladi.
- Oz va mazmunli umr ko'rgan Qudrat Hikmat bolalarga bag'ishlab yigirmadan ziyod kitob yozdi. U tamomila yosh kitobxon ishonchini oqlab, kishilar hurmatini qozondi. Buning evaziga u munosib taqdirlanib, el nazariga tushdi. SHoir o'zi bashorat qilib:
 - Olmos mening yuragim,
 - Tolmas mening yuragim.
 - Kim aytadi elimda,
 - Qolmas mening yuragim, — deb yozgani kabi bugun u barhayot, oramizda, mehri ko'z qoramizda.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1 Qudrat Hikmatning qaysi she'rlarida baxtli bolalik haqida so'z boradi?
- 2. U o'qish, kasb-hunar haqida qanday asarlar yaratdi va ularning o'ziga xosligi nimada?
- 3. SHoir dostonlarida cho'l-biyobonlarni o'zlashtirish masalasi qanday yoritilgan?